



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O'ZGARISHIGA TA'SIRI TAHLILI.....	45
Ochilov Laziz Siddiqovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI	54
Sanakulova Iroda Abrorovna	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)	61
Kozokov Najmiddin Isomiddinovich	
XALQARO OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA UNIVERSITET BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL AVTONOMIYA, HISOBDOIRLIK VA STRATEGIK BOSHQARUV MODELLARI	68
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
THREE GENERATIONS OF REFORM: GOVERNANCE PARADIGMS AND THE MEASUREMENT GAP IN UZBEKISTAN'S SUSTAINABLE DEVELOPMENT TRANSITION	76
Salakhutdinova Yulduz Golibovna	
ГЕНЕРАТИВНЫЙ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНТЕНТ-МАРКЕТИНГА	82
Умарова Нозанин Алишерзода	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	88
Sapayev Abduljalol Odinayevich	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV TIZIMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	96
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
UMUMIY IQTISODIY MUVOZANAT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI.....	102
Murodov Alisher Murodjon o'g'li	
РОЛЬ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	106
Уралова Сожида Анвар кизи	



JIZZAX VILOYATI TURIZMINING RIVOJLANISH DINAMIKASI, TUZILMASI VA ISTIQBOLLARI (2016–2024-YILLAR)	112
Mamadiyrov Adhamjon Qo'chqar o'g'li	
KREATIV INDUSTRIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	121
Ulug'bekov Sardorbek Ulug'bekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	128
Turdiyev Eralijon Muxtarovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUDJETDAN TASHQARI TUSHUMLAR AUDITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	134
Abduraxmonov Saidqosimxon Abduhamid o'g'li	
CHAKANA BANK XIZMATLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING NAZARIY JIHATLARI	138
Asqarov Fayzullo G'iyosiddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BILIM VA MALAKALARNI RAQAMLI BAHOLASH TIZIMINING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	148
Abdiyev Nosir Raximovich	
Muzaffarova Mohira Nuraliyevna	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA MOLIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	154
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINING HUDUDII RIVOJLANISH DARAJASINI QIYOSIY BAHOLASH	160
Omonova Nigora Bahodir qizi	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI	167
Iskandarov Xurshid Iskandarovich	
TEXNOLOGIK AVLOD ALMASHINISHI SHAROITIDA ALOQA KORXONALARI TOVAR-MODDIY ZAXIRALARINING QADRSIZLANISHINI HISOBGA OLISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Jamilov Jushqin Jonon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASINI ANFIS ASOSIDA MODELLASHTIRISH	181
Avazova Nafisa Namazovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH: O'ZSME-DDI MODULINING METODOLOGIYASI VA AMALIY JORIY ETISH MEXANIZMI	186
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	193
Kenjaeva Durdona Ravshan qizi	
ФАКТОРНЫЙ АНАЛИЗ КАК ИНСТРУМЕНТ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	198
Аюбов Ойбек Улугбек угли	
YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH	204
Raximov Sarvarbek Abdumutalibjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH, ULARNI MOLIYALASHTIRISHNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI	211
Umarova Gulzodxon Qodirbekovna	



MEHMONXONA XO'JALIKLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL MEXANIZMI VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	216
Rahimov Hasan Abdusaitovich	
NOMODDIY AKTIVLAR BO'YICHA OSHKORALIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA MILLIY HISOBNI XALQARO STANDARTLAR BILAN UYG'UNLASHTIRISH.....	221
Ishankulov Izzatilla Nurillayevich	
SANOATLASHTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA UNUMDORLIK OMILI.....	226
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
INNOVATSION O'ZGARISHLAR ASOSIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHNING 2030-YILGACHA MO'LJALLANGAN PROGNOZ SSENARIYLARI VA ULARNING SEZGIRLIK TAHLILI	232
Amrullayev Dadaxon	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ УЯЗВИМОСТИ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ И СТРУКТУРНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	237
Эркинбаева Камила Жавланбековна	
TIJORAT BANKLARI BIZNES MODELINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	243
Sh. Nurullayeva	
S. Narimonov	
OLIY TA'LIMDA RAQAMLI EKOTIZIMNI SHAKLLANTIRISHDAGI XAVF-XATARLAR (RISKLAR) VA BOSHQARUV MUAMMOLARI.....	249
Pirmanov Oxunjon Baxridin o'g'li	
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	256
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Хакимов Хафизбек Хамза угли	
Джумабаева Гаянэ Рахимовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOTRANSPORT XIZMATLARI BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI EKOLOGIK-IQTISODIY OMILLAR ASOSIDA OSHIRISH YO'LLARI	263
Sultanov Sulaymon Safarboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	269
Abdushukurova Mehribonu Dilmurod qizi	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH, YER RESURLARIDAN FOYDALANISH VA AHOLINING XARID QOBILIYATI MUVOFIQLIGINI BAHOLASH	276
Ramazonov Zafar Ulug'bekovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СТРАХОВОГО РЫНКА	281
Мирахмедова Мафтуна Ибрагимовна	
TIJORAT BANKLARIDA FOIZ SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AMALIY JIHATLARI.....	288
Orifova Dilnoza Obid qizi	
XALQARO KREDIT LINIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	295
Aliyev Bekzod Ilhomovich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ УЧЁТА И АНАЛИЗА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ	301
Холикова Дурдона Бунёдjon кизи	



TOSHKENT VILOYATIDA ISHLAB CHIQUARISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HUDUDIIY DIFFERENSIATSIYASI.....	308
Salimov Burxoniddin	
IJTIMOIIY-IQTISODIIY ADOLATNI TA'MINLASHDA SINERGETIK YONDASHUV: ZANJIRLI ADOLAT KONSEPSIYASI.....	314
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
AQLLI SHAHAR TIZIMIDA IJTIMOIIY SOHA BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEXANIZMLARI.....	319
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
QO'SHILGAN QIYMATNI TAQSIMLASHNING SAMARALI SOLIQ MEXANIZMIGA OID XORIJ TAJRIBALARI.....	326
A.A. Bobomurodov	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT" TIZIMIGA O'TISH ZARURIYATI VA XIZMATLAR SOHASI UCHUN IQTISODIIY AHAMIYATI.....	333
Y.M.Xalikov	
OLIIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	342
Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o'g'li	
YOSHLARNING RAQAMLI MEHNAT PLATFORMALARIDA BARQAROR BANDLIGINI RISKKA ASOSLANGAN STRATEGIK BOSHQARISH.....	349
Palvonova Sevara Baxromovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	355
Almanov Ilhom Sultonovich	
MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARINI GEYMIKATSIYALASH ASOSIDA TA'LIM SIFATI VA IQTISODIIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH	362
Aslonova Rushano Ilxomovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIIY NATIJADORLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH.....	368
Tursunxo'jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi	
HUDUDLARNING IQTISODIIY RIVOJLANISHIDA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	374
Xolmatov Azamatjon Abdupattoyevich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКСПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭКСПОРТНОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ	380
Муниса Турдибаева	
LOYIHA MENEJERLARINING SOFT SKILLS KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING LOYIHALAR IQTISODIIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	394
Zairova Farida To'xtamurod qizi	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIIY KO'RSATKICHLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH.....	400
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	407
Jumaev Sohob Baxodirovich	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI VA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TRANSFORMATSIYON MODELII.....	412
Murodullayeva Guljaxon A'zamjon qizi	
INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY VA USLUBIIY ASOSLARI	418
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	426
Olimboyeva Nazokat Abdujabbor qizi	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARIDA INTEGRALLASHGAN RISKKA YO'NALTIRILGAN AUDIT MODELIDAN FOYDALANISH USLUBIYOTI.....	431
Muydinov Erkin Jamaldinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	441
Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich	



MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTIONAL MEXANIZMLARI

Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich
Ma'mun universiteti o'qituvchisi
Email: gayrat.bekbergenov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishning institutsional mexanizmlari nazariy va amaliy jihatdan o'rganilgan. Mualliflar tomonidan "samaradorlik" tushunchasining ko'p o'lchovli talqini asosida original konseptual model ishlab chiqilgan bo'lib, unda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik tarkibiy qismlar bir-biri bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. O'zbekiston mintaqalari bo'yicha empirik ma'lumotlar tahlili tadbirkorlikning mintaqaviy yalpi ichki mahsulotga ulushi, eksport salohiyati va bandlik darajasiga ta'siri bo'yicha yangi topilmalar beradi. Maqolada tadbirkorlik samaradorligini belgilovchi omillar tizimi taklif etilgan hamda mintaqaviy barqaror rivojlanishni rag'batlantirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlar asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: mintaqaviy iqtisodiyot, tadbirkorlik samaradorligi, barqaror rivojlanish, institutsional mexanizmlar, kichik va o'rta biznes (KO'B), klaster siyosati, iqtisodiy diversifikatsiya.

Аннотация: В данной статье теоретически и практически исследованы институциональные механизмы повышения эффективности предпринимательской деятельности в обеспечении устойчивого развития региональной экономики. Авторами на основе многомерной интерпретации понятия «эффективность» разработана оригинальная концептуальная модель, в которой экономическая, социальная и экологическая составляющие рассматриваются во взаимосвязи. Анализ эмпирических данных по регионам Узбекистана позволяет выявить новые результаты относительно влияния предпринимательства на долю в валовом региональном продукте, экспортный потенциал и уровень занятости. В статье предложена система факторов, определяющих эффективность предпринимательской деятельности, а также обоснованы стратегические меры, направленные на стимулирование устойчивого развития регионов.

Ключевые слова: региональная экономика, эффективность предпринимательской деятельности, устойчивое развитие, институциональные механизмы, малый и средний бизнес (МСБ), кластерная политика, экономическая диверсификация.

Abstract: This article examines the institutional mechanisms for improving the efficiency of entrepreneurial activity in sustainable regional economic development from both theoretical and practical perspectives. Based on a multidimensional interpretation of the concept of "efficiency," the authors develop an original conceptual model integrating economic, social, and environmental components. Empirical analysis of data across Uzbekistan's regions yields new findings on the impact of small and medium-sized enterprises on regional GDP share, export potential, and employment levels. The article proposes a system of determinants of entrepreneurial efficiency and substantiates strategic measures aimed at promoting sustainable regional development.

Keywords: regional economy, entrepreneurial efficiency, sustainable development, institutional mechanisms, small and medium enterprises, cluster policy, economic diversification.

KIRISH

Hududiy iqtisodiy rivojlanish masalasi zamonaviy iqtisodiy nazariyaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ko'plab tadqiqotchilar iqtisodiy o'sishning manbalari va geografik taqsimlanishi masalasiga yaqinlashsa-da, mintaqaviy rivojlanishda tadbirkorlikning rolini institutsional prizma orqali o'rganish yo'nalishi yanada rivojlantirilmoqda. Holbuki, aynan mahalliy tadbirkorlik muhiti – uning sifati, tarkibi va dinamikasi – mintaqaviy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar tadbirkorlik muhitini sifat jihatidan o'zgartirish yo'lida sezilarli yutuqlarga erishildi: yuzlab ma'muriy jarayonlar optimallashtirildi, tadbirkorlik



subyektlari soni 2016-yildan 2024-yilga qadar 2,7 baravarga oshdi, erkin iqtisodiy zonalar va texnoparklar tarmog'i kengaydi. Shu bilan birga, mintaqalar o'rtasidagi tadbirkorlik faolligida rivojlanish xususiyatlari kuzatilmoqda: poytaxt va bir nechta yirik shaharlar mamlakatning umumiy KO'B faoliyatining YalMdagi salmoqli qismini qamrab olgani holda, bir qator viloyatlarda tadbirkorlik salohiyatini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

Mazkur rivojlanish xususiyatlari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega: mintaqaviy tadbirkorlik faolligining rivojlanishi bandlik imkoniyatlarini kengaytiradi, yosh avlodning iqtisodiy mobilligini qo'llab-quvvatlaydi va, o'z navbatida, demografik jarayonlarning muvozanatli kechishiga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, mintaqalarda iqtisodiy faollikni kuchaytirishi mumkin – aholi barqaror shakllanayotgan hududlarda tadbirkorlik ekotizimi yanada rivojlanadi.

Shu nuqtayi nazardan, mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan institutsional mexanizmlarni ishlab chiqish va ularning amaliy tatbiqini asoslash hozirgi kunning muhim ilmiy-amaliy masalalaridan biriga aylangan. Ushbu maqolada aynan shu yo'nalishga kompleks yondashuv taklif etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik va mintaqaviy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy adabiyotda turlicha talqin qilinadi. Klassik pozitsiya – Schumpeter (1934) nomi bilan bog'liq – tadbirkorni «ijodiy buzuvchi» sifatida tavsiflaydi, ya'ni innovatsiyani bozor tizimiga kirituvchi asosiy agent hisoblanadi. Bu nazariy asos tadbirkorlikning iqtisodiy o'sish uchun mexanik faktor emas, balki sifatiy transformatsiya vositasi sifatida qaraladigan zamonaviy yondashuvlarga poydevor bo'ldi.

Keyingi avlod tadqiqotchilari, jumladan, Audretsch va Fritsch (2002) mintaqaviy darajada tadbirkorlik faolligi va iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni empirik jihatdan tasdiqladilar. Muhim topilma shunda ediki, bu bog'liqlik barcha mintaqalarda bir xilda namoyon bo'lmaydi: institutsional muhitning sifati hal qiluvchi moderatsiyalovchi omil vazifasini bajaradi. Boshqacha aytganda, bir xil tarkibi va soni bo'lgan tadbirkorlar turlicha institutsional sharoitda butunlay turli natijalar berishi mumkin.

Barqaror rivojlanish kontekstida tadbirkorlikni o'rganish nisbatan yangi yo'nalish hisoblanadi. Shepherd va Patzelt (2011) «barqaror tadbirkorlik» (sustainable entrepreneurship) tushunchasini kiritib, uni ijtimoiy va ekologik muammolarni bozor mexanizmlari orqali hal etishga yo'naltirilgan tadbirkorlik faoliyati sifatida ta'rifladi. Bu yondashuv keyinchalik Hockerts va Wüstenhagen (2010) ishlari bilan rivojlantirildi, ular yirik va kichik kompaniyalar o'rtasidagi barqarorlik o'zgarishlarini harakatga keltirishda turli rollar o'ynashini asosladilar.

Mahalliy iqtisodiyot nazariyasi nuqtai nazaridan Porter (1998) klaster konsepsiyasi mintaqaviy raqobatbardoshlik va tadbirkorlik ekotizimi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishda eng ta'sirchan nazariy ramkalardan biri bo'lib qolmoqda. Porterning asosiy dalili shundaki, kompaniyalar yakka holda emas, balki o'zaro bog'liq sanoat tuzilmalari doirasida raqobat qiladi va aynan shu tuzilmalarning geografik to'planishi mintaqaviy ustunlik yaratadi.

O'zbekiston kontekstida mintaqaviy iqtisodiyot va tadbirkorlik muammolari Toshmatov (2021), Yusupov va Hamidov (2022) kabi mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Biroq bu ishlarda institutsional omillarning mintaqalar kesimidagi farqlovchi roli yetarlicha o'rganilmagan, samaradorlikni o'lchashning ko'p o'lchovli tizimi ham taklif etilmagan. Mazkur maqola aynan shu metodologik bo'shliqni to'ldirish maqsadida yozilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda mintaqaviy tadbirkorlik samaradorligini iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlar yig'indisi sifatida o'lchaydigan ko'p o'lchovli tahlil metodologiyasidan foydalanildi. Ushbu yondashuv an'anaviy bir o'lchovli baholashdan (faqat moliyaviy ko'rsatkichlar asosida) tubdan farq qiladi va barqaror rivojlanish maqsadlari bilan metodologik jihatdan uyg'unidir.

Tahlil uchun quyidagi ma'lumot manbalari qo'llandi: O'zbekiston Statistika agentligining 2019–2023-yillardagi viloyatlar bo'yicha ma'lumotlar bazasi; Tadbirkorlik vazirligi KO'B monitoringi natijalari; Jahon banki B-READY (2024–2025) va Doing Business (2020) hisobotlari; xalqaro tajribalar bo'yicha ilmiy manbalar.

Mintaqaviy tahlil o'zida uchta asosiy bosqichni birlashtirdi. Birinchi bosqichda samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar tizimi ishlab chiqildi va ichki-tashqi omillar matritsasi tuzildi. Ikkinchi bosqichda O'zbekiston viloyatlari bo'yicha KO'B faolligining asosiy ko'rsatkichlari taqqoslab tahlil qilindi. Uchinchi bosqichda xorij tajribasi bilan qiyosiy tahlil amalga oshirildi va amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Nazariy yondashuv nuqtai nazaridan tadqiqot institutsional iqtisodiyot (North, 1990), klaster nazariyasi (Porter, 1998) va barqaror tadbirkorlik (Shepherd & Patzelt, 2011) konseptual ramkalarini o'zida birlashtiradi. Bu uchta nazariy an'ananing sintezi mahalliy muammolarni global metodologik asboblarda yordamida tahlil qilish imkonini beradi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholashda faqat moliyaviy ko'rsatkichlarga tayanish mintaqaviy iqtisodiyot kontekstida yetarli emas. Chunki mintaqaviy miqyosda tadbirkorlik nafaqat foyda olish, balki band qilingan aholini ta'minlash, mahalliy soliq bazasini shakllantirish, ijtimoiy infratuzilmani moliyalashtirish va mahalliy iqtisodiy identitetni saqlab qolish kabi ko'p qirrali vazifalarni bajaradi.

Shu asosda biz mintaqaviy tadbirkorlik samaradorligining quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatamiz:

- Iqtisodiy samaradorlik: resurslar, kapital va mehnat unumdorligini aks ettiruvchi an'anaviy moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar;
- Ijtimoiy samaradorlik: ish o'rinlari yaratish, mehnat munosabatlari sifati, mahalliy hamjamiyatga hissa va gender tengligi ko'rsatkichlari;
- Innovatsion samaradorlik: yangi mahsulot va xizmatlar yaratish, texnologiyalarni o'zlashtirish va bozorda yangilik joriy etish sur'atlari;
- Ekologik samaradorlik: resurs tejamkorligi, chiqindilarni boshqarish, uglerod izi va yashil texnologiyalarga investitsiya.

Ushbu to'rtta tarkibiy qism o'zaro bog'liq holda ishlaydi: innovatsion samaradorlik iqtisodiy samaradorlikka ta'sir qiladi; ijtimoiy investitsiyalar uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi; ekologik cheklavlarni e'tiborsiz qoldirish esa qisqa muddatli iqtisodiy yutuqlarni yo'qotishga olib kelishi mumkin (1-jadval).

1-jadval. Mintaqaviy tadbirkorlik samaradorligini belgilovchi omillar tizimi¹

Tadbirkorlik samaradorligi omili	Ichki omillar	Tashqi (mintaqaviy) omillar	O'lchash ko'rsatkichi
Resurs samaradorligi	Kapital aylanuvchanligi, innovatsion faollik	Resurs ta'minoti, raqobat muhiti	Kapital unumdorligi, aktiv rentabelligi (ROA)
Boshqaruv sifati	Qaror qabul qilish tezligi, korporativ madaniyat	Boshqaruv ta'limi, mentorlik tizimi	Mehnat unumdorligi, boshqaruv xarajati ulushi
Innovatsion salohiyat	R&D investitsiyasi, kadrlar malakasi	Texnopark, ilmiy-sanoat klasterlari	Yangi mahsulot ulushi, patent soni
Moliyaviy barqarorlik	Likvidlik, kapital tuzilmasi	Kredit kirish imkoni, kafolat fondlari	Moliyaviy leveraj, likvidlik koeffitsienti
Ijtimoiy mas'uliyat	Korporativ siyosat, xodimlar munosabati	Mahalliy hamjamiyat, normativ baza	ESG reytingi, ijtimoiy investitsiya ulushi

O'zbekiston Statistika agentligining 2023-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda jami 548,2 ming KO'B ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ular yalpi ichki mahsulotning 56,3 foizini, bandlikning 33,7 foizini ta'minlaydi. Biroq bu ko'rsatkichlarning mintaqalar bo'yicha taqsimlanishi keskin farqlanadi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahri yagona o'zi mamlakatdagi KO'Blarning 17,9 foizini va ularning eksport hajmining 41,7 foizini tashkil qiladi. Bu o'ta yuqori geografik konsentratsiya nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham risklar tug'diradi: mintaqalararo tengsizlik kuchayadi, yosh kadrlarda poytaxtga intilish motivatsiyasi oshadi va mahalliy islohotlar uchun siyosiy bosim kamayadi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston mintaqalari bo'yicha KO'B faolligining asosiy ko'rsatkichlari (2023-yil)²

Mintaqa/Viloyat	KO'B soni (ming dona)	YalMdagi ulushi (%)	Eksportdagi ulushi (%)	Bandlik ulushi (%)
Toshkent shahri	98,4	38,2	41,7	29,1
Samarqand viloyati	62,7	9,8	8,3	34,6
Farg'ona viloyati	71,3	11,2	9,6	37,8
Qashqadaryo viloyati	44,1	7,3	6,1	31,2
Xorazm viloyati	28,6	4,1	2,9	33,4
O'zbekiston jami	548,2	100,0	100,0	33,7

1 Manba: Muallif tahlili, institutsional iqtisodiyot nazariyasi asosida ishlab chiqilgan.

2 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2023; muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.



2-jadval ma'lumotlari qator muhim xulosalarni shakllantirishga asos beradi. Birinchidan, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida KO'B sonining nisbatan ko'p bo'lishi bilan birga, ularning YalMdagi ulushi geografik hajmga mutanosib ravishda rivojlanish salohiyatining yuqoriligini ko'rsatadi – bu holat ushbu mintaqalardagi korxonalar faoliyatini yanada rivojlantirish va qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlari mavjudligidan dalolat beradi. Ikkinchidan, Xorazm viloyatida tadbirkorlik faolligining rivojlanish darajasi qo'shni viloyatlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu viloyatning geografik joylashuvi va logistik infratuzilmasini yanada rivojlantirish imkoniyatlari bilan bog'liq. Uchinchidan, bandlik ulushi bo'yicha nisbatan muvozanat kuzatiladi (29–38% oralig'ida), bu esa tadbirkorlikning barcha mintaqalarda mehnat bozori uchun muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan ekspertlar bilan chuqur suhbatlar va mavjud statistik ma'lumotlar tahlili O'zbekiston mintaqalarida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi bir necha muhim institutsional omillarni aniqlash imkonini berdi.

Ma'muriy jarayonlar va ruxsatnomalar tizimining takomillashib borayotgan mexanizmlari muhim o'rin tutadi. Rasmiy muddatlar qisqartirilgan bo'lib, amaliyotda qo'shimcha talablarning soddalashtirilishi va xizmat ko'rsatish jarayonlarining optimallashtirilishi muddatlarni qisqartirishga xizmat qilmoqda. Bunda mintaqalar o'rtasida sezilarli rivojlanish imkoniyatlari mavjud: Toshkent shahridagi tadbirkor bir xil ruxsatni, masalan, Xorazmdagi hamkasbiga qaraganda o'rtacha 2,3 barobar tezroq oladi.

Moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining mintaqaviy kengayishi ikkinchi muhim omil hisoblanadi. Tijorat banklari filiallarining asosiy qismi poytaxt va yirik shaharlarda joylashgan bo'lsa-da, qishloq va uzoq hududlardagi tadbirkorlar uchun masofaviy bank xizmatlari va moliyaviy vositalarning rivojlanishi kredit olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bu holat vaqtini tejash, shuningdek, bitim xarajatlarini kamaytirishga ham xizmat qilmoqda.

Kadrlar salohiyatining rivojlanishi, ayniqsa raqamli va texnik mutaxassislar tayyorlashning kengayishi, kichik mintaqalardagi tadbirkorlarga innovatsion faoliyatni rivojlantirishda qo'shimcha imkoniyat yaratadi. Oliy ta'lim muassasalarining hududiy joylashuvi va ular bitiruvchilarining mehnat bozorida talab qilinadigan kompetensiyalari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashga qaratilgan jarayonlar izchil takomillashib bormoqda.

Amalga oshirilgan tahlil, xorij tajribalari va mahalliy shart-sharoitlar majmuasini hisobga olgan holda O'zbekiston mintaqalarida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishning quyidagi strategik yo'nalishlari taklif etiladi (3-jadval):

3-jadval. Mintaqaviy tadbirkorlik samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari³

Strategik yo'nalish	Asosiy chora-tadbirlar	Mas'ul tuzilmalar	Kutilayotgan natija (2026–2030)
Ruxsatnomalar tizimini soddalashtirish	Viloyatlarda yagona “bir darcha” markazi; jarayon raqamlashtirilishi	Vazirlar Mahkamasi, Tadbirkorlik vazirligi	Jarayon vaqtini 65% qisqartirish; 40 000 yangi korxona
Mintaqaviy kredit kafolat tizimi	Mintaqaviy KKF tashkil etish; mikro-moliyalash kengaytirish	Markaziy bank, viloyat hokimiyatlari	KO'B kreditlanishini 2,2 baravar oshirish
Ixtisoslashgan klasterlar	Har bir viloyatda tabiiy ustunligiga asoslangan klaster	Sanoat vazirligi, mahalliy ma'muriyat	Eksport salohiyatini 25–30% oshirish
Innovatsion ekotizim	Texnoparklar tarmog'ini kengaytirish; OTM–sanoat hamkorligi	Ta'lim vazirligi, IT-Park, texnoparklar	Startaplar sonini 3 baravar oshirish
Kadrlar tayyorlash	Dual ta'lim; qayta tayyorlash markazlari	Ta'lim vazirligi, mahalliy tadbirkorlar	Malakali kadrlar taqchilligini 40% kamaytirish

Taklif etilgan strategik yo'nalishlarni amalga oshirishda ikkita prinsip hal qiluvchi ahamiyatga ega. Birinchisi – differentsiatsiya prinsipi: har bir viloyat o'zining tabiiy resurs salohiyati, demografik tuzilmasi va mavjud sanoat bazasiga mos ixtisoslashuv strategiyasini ishlab chiqishi zarur. Milliy darajada bir xil siyosat mintaqaviy farqlarni bartaraf etmaydi, aksincha, kuchaytirib yuborishi mumkin. Ikkinchisi – uzviylik prinsipi: samarali islohotlar bir yillik dasturlar bilan emas, balki 7–10 yillik va undan uzoq muddatli institutsional o'zgarishlar orqali ta'minlanadi. Bu esa siyosiy o'zgarishlarga chidamli mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

3 Manba: Muallif taklifi, xorij tajribalari va O'zbekiston mintaqalari tahlili asosida ishlab chiqilgan.



Xalqaro tajriba ham ushbu prinsiplarni tasdiqlaydi: Janubiy Koreya 1997-yilgi inqirozdan keyin KO'B siyosatini qayta qurishga 10 yildan ortiq vaqt sarfladi; Gruziya institutsional islohotlarning dastlabki natijalarini 5-yildan so'ng ko'ra boshladi. O'zbekiston ham shu yo'lda sabr va izchillik talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishning institutsional mexanizmlari kompleks tarzda o'rganilib, quyidagi ilmiy natijalar qo'lga kiritildi:

– Tadbirkorlik samaradorligining to'rt komponentli modeli iqtisodiy, ijtimoiy, innovatsion va ekologik tarkibiy qismlarni birlashtiruvchi taklif etildi. Ushbu model an'anaviy bir o'lchovli yondashuvlardan farqli ravishda mintaqaviy barqaror rivojlanish maqsadlari bilan metodologik jihatdan uyg'unidir.

– O'zbekiston mintaqalari bo'yicha empirik tahlil KO'B faolligida keskin geografik konsentratsiya mavjudligini aniqladi: Toshkent shahri yagona o'zi eksport hajmining 41,7 foizini ta'minlaydi. Bu holat mintaqaviy siyosatni differentsiyalash zarurligini qat'iy asoslaydi.

– Institutsional to'siqlarning mintaqalar bo'yicha farqlanishi asoslab berildi: ma'muriy ruxsatnomalar olishda poytaxt va chekka mintaqalar o'rtasida 2,3 barobar vaqt tafovuti aniqlandi.

– Beshta strategik yo'nalish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi: ruxsatnomalar tizimini soddalashtirish, mintaqaviy kredit kafolat fondi, ixtisoslashgan klasterlar, innovatsion ekotizim va dual kadrlar tayyorlash tizimi.

Tadqiqotning asosiy ilmiy yangiligi shundaki, samaradorlik tushunchasi birinchi marta mintaqaviy barqaror rivojlanish kontekstida ko'p o'lchovli, institutsional omillarni hisobga oluvchi tizim sifatida talqin etilgan va O'zbekiston mintaqalari bo'yicha empirik tarzda asoslangan.

Kelgusida tadqiqotni O'zbekiston mintaqalari bo'yicha panel ma'lumotlar asosida ekonometrik modellashirish orqali davom ettirish, shuningdek, tadbirkorlik samaradorligi va yalpi mintaqaviy mahsulot o'rtasidagi aloqani kuzatuv ma'lumotlari yordamida qiyosiy baholash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Audretsch D.B., Fritsch M. Growth regimes over time and space // *Regional Studies*. – 2002. – Vol. 36, №2. – P. 113–124.
2. Hockerts K., Wüstenhagen R. Greening Goliaths versus emerging Davids – Theorizing about the role of incumbents and new entrants in sustainable entrepreneurship // *Journal of Business Venturing*. – 2010. – Vol. 25, №5. – P. 481–492.
3. North D.C. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.
4. Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition // *Harvard Business Review*. – 1998. – Vol. 76, №6. – P. 77–90.
5. Schumpeter J.A. *The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle*. – Cambridge: Harvard University Press, 1934. – 255 p.
6. Shepherd D.A., Patzelt H. The New Field of Sustainable Entrepreneurship: Studying Entrepreneurial Action Linking 'What Is to Be Sustained' with 'What Is to Be Developed' // *Entrepreneurship Theory and Practice*. – 2011. – Vol. 35, №1. – P. 137–163.
7. World Bank. *Business Ready (B-READY) 2025 Report*. – Washington, D.C.: World Bank Group, 2025.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
9. Toshmatov Sh.A. *Mintaqaviy tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirishning metodologik asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 214 b.
10. Yusupov M., Hamidov B. O'zbekiston mintaqalarida kichik biznesning iqtisodiy o'sishga ta'siri: panel tahlil natijalari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2022. – №3. – B. 45–58.
11. Bekbergenov, G. (2026). MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANISHIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINING ROLINI EMPIRIK JIHATDAN TAHLILI. MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT, 4(1).
12. Bekbergenov, G. (2025). MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA). Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (13. I), 90-99.
13. Daichi, A., Sadri, F., Moghaddam, A. K., Talebian, S., Bekbergenov, G., Ruziboy Ugli, M. I., ... & Jumabayev, I. (2025). Optimal Power Management in an Electrical Distribution Network with Demand Response Programs and Local Operation of Battery Storage Systems. *International Transactions on Electrical Energy Systems*, 2025(1), 5701233.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>